

## UBAYDULLOH KAHHOL – XVI ASR O'RTA SHARQ YIRIK OKULISTI

**Zafarbek Mirzaolimovich Komilov**

*Central Asian Medical University Tibbiyot universiteti assistenti,*

**Qo'chqorov Oybek G'ulomovich**

*FarDu qoshidagi akademik litsey o'qituvchisi*

Qadimdan O'zbekiston aholisi orasida tibbiyotga oid asarlar juda mashhur bo'lgan bo'lib, ular davolash ishi, okulistika, farmakologiya, gigiyena bo'yicha qo'llanma va risolalar hisoblangan. Ular orasida nafaqat Sharq olimlarining tibbiyotga oid asarlari tarjimalari, balki mahalliy olimlar tomonidan yaratilgan risolalar ham bor edi. XVI asrda Movarounnahrda Shayboniylar davlati barpo etilgach, Shayboniylar temuriylar davrida yurtimizda yaratilgan yuksak rivojlangan madaniyatga munosib voris bo'la olmaganlar. Shunday bo'lsa-da, shayboniylar davrida ilm-fan va madaniyat baholi qudrat rivoj topdi. Bunga ushbu sulola hukmdorlari orasidan o'z davrining yetuk ilm-fan arboblari yetishib chiqqanligi ham ta'sir ko'rsatgan. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkunchixon va Ubaydullaxonlar o'z davrining nihoyatda o'qimishli kishilari bo'lganlar.

Shayboniylar davrida tibbiyot, matematika va astronomiya kabi fanlar ma'lum darajada rivojlangan.

Tibbiyot ilmidagi rivojlanish o'z zamonasida „tabiblar iftixori“ deb sharaflangan Muhammad Mazid, jarroh mavlono Baqo, ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan Shohali ibn Sulaymon, „Davolash bo'yicha dastur“ asari muallifi Sultonali Samarqandiy, „Ko'z kasalligiga doir asosiy kitob“ asarlari bilan mashhur bo'lgan Ubaydulloh Kahhol kabi alloma tabiblarining nomi bilan bog'liqdir [1,3].

Ko'plab olimlar qatori Ubaydulloh Kahhol zamonasining eng yetuk tib olimi hisoblanga. Kahholning ota-bobosi tib ilmida shuhrat qozongan va tibbiy asarlar yozganlar. Ubaydullohning otasi Muhammad Yusuf ham zo'r e'tiborli tabib bo'lib, «Risola fi-t-taxqiq va-t-tafsirot an-nabz» («Tomir orqali kasallikni aniqlash haqida risola») nomli tibbiy asar yozgan.

Ubaydulloh Kahhol Toshkent xoni Darvishxonning shaxsiy tabibi bo'lgan. Kahhol Ibn Sino, Iloqiy, Abu Bakr Roziy, Najibuddin Samarqandiy va Jurjoniy asarlaridan foydalangan holda o'zining «Shifo ul-alil» asarini yozadi. Kitob 1598-yili tugallangan [5,13].

Asarning so'z boshisidan ma'lum bo'lishicha, avtor bu asarni Baroqxonning o'rtancha o'g'li Muhammad Darvishxonning buyrug'iga binoan, fors va arab tillaridagi asarlar asosida yozgan. Asar so'z boshi va bir necha bo'limdan iborat, har bir bo'lim, o'z navbatida, yana bir necha bobga bo'linadi. Asarning so'z boshisi tibbiyotning ahamiyati, uning foydasi va tabibning vazifalariga bag'ishlangan.

Birinchi bo'lim 42 bob, unda bosh miyaning tuzilishi va ahamiyati, bosh og'rig'ining kelib chiqish sabablari, uni aniqlash va davolash usullari bayon qilingan.

Ikkinchi bo'lim 80 bob, bu bo'lim ko'z va uning tuzilishi, ko'z kasalliklari va ularni davolashga bag'ishlangan.

Uchinchi bo'lim 21 bob, unda quloq, burun va og'iz kasalliklari, shu jumladan, til va tish og'rig'i, ularni davolash ustida fikr yuritiladi.

To'rtinchi bo'lim 10 bob bo'lib, u tomoq va nafas olish yo'llari, unda paydo bo'ladigan turli kasalliklar va ularni davolash usullariga bag'ishlangan.

Beshinchi bo'lim 3 bobdan iborat, unda yurak, yurak kasalliklari, ularni davolash ustida fikr yuritiladi.

Oltinchi bo'lim 18 bob, u ovqat hazm qilish yo'llariga taaluqlidir, unda oshqozon va qorinda paydo bo'ladigan turli kasalliklarni davolash usullari bayon qilingan.

Yettinchi bo'lim 10 bobdan iborat bo'lib jigar, o't pufagi ularning kasalliklari hamda ularni davolash ustida fikr yuritiladi.

Sakkizinchi bo'lim 6 bob, unda ichak yo'llari, ularning kasalliklari bayon qilingan.

To'qqizinchi bo'lim 8 bob, unda umurtqa pog'onasi, uning kasalliklari, davolash usullari bayon qilinadi.

O'ninchi bo'lim ham 8 bob, unda siydik pufagi, uning paydo bo'lishi va davolash usullari ko'rsatilgan.

O'n birinchi bo'lim 7 bob bo'lib, u organlar, ularning kasalliklarni davolash usullariga bag'ishlangan.

O'n ikkinchi bo'lim 11 bob bo'lib, ayollarning organlari, ularda paydo bo'ladigan turli kasalliklar, bu kasalliklarni davolash usullariga bag'ishlangan.

O'n uchinchi bo'lim 5 bob, bu boblarda yelka, oyoq bo'g'imlari, ularda paydo bo'ladigan turli kasalliklar va ularni davolash usullari ustida fikr yuritiladi.

O'n to'rtinchi bo'lim 25 bob, unda badandagi tashqi kasalliklar, ularni davolash usullari to'g'risida fikr yuritiladi.

O'n beshinchi bo'lim kosmetikaga oid bo'lib, 12 bobdan iborat, unda insonga zeb berish uchun xizmat qiluvchi organlar (soch, tirnoq, tish va boshqalarni)ni saqlash, Shuningdek, semirish va ozish to'g'risida fikr yuritiladi.

O'n oltinchi bo'lim 6 bob, unda taksikologiyaga oid masalalar, Shuningdek, o'simlik va hayvon zaharlari, zaharga qarshi choralar, yirtqich va kemiruvchi hayvonlardan bo'ladigan turli yaralar haqida fikr yuritiladi.

O'n yettinchi bo'lim (bu bo'lim boblarga bo'lingan emas) bolalar gigienasi, kasalliklari, Shuningdek, bu kasalliklarni aniqlash va davolash usullariga bag'ishlangan.

O'n sakkizinchi bo'limda bezgak va uni davolash choralari haqida fikr yuritiladi.

Asarning xulosa qismida kasallikdagi krizislar, kasallik oqibatida o'lish sabablari, to'satdan yuz beradigan holatlar to'g'risida fikr yuritiladi.

Toshkent va uning viloyatlarda 1563-1564 yillarda yel kasalligi tarqalganda Kahhol aholini bu kasallikdan davolashda ko'p xizmat qilgan, boy tajriba orttirgan va bu tajriba unga yuqorida ko'rsatilgan asarni yozishda katta rol o'ynagan [5,14].

«Shifo-ul-alil» tibbiyot sohasida uzoq vaqtgacha asosiy qo'llanmalardan biri hisoblanib kelgan, bu asar Hindiston, Eron va boshqa mamlakatlarga ham tarqalgan. Asar yozilgandan 97 yil o'tgandan keyin Eronda ko'chirilgan (bu nusxa ham O'zFASHida saqlanadi). Bu nusxa Buxoro qozisi, ilm-ma'rifatni qadrllovchi Sharifjon maxdum Sadr Ziyo tomonidan o'z vaqtida juda katta mablag'ga sotib olinganligi bu asarning nihoyatda qimmatli ekanligidan darak beradi. Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan bu asar 1072-hijriy, 1662-milodiy yili ko'chirilgan, hajmi 342 varaq bo'lib, u Muslim ibn Muhammad Abivardiy tomonidan ko'chirilgan [1,69].

Undan tashqari bu asarning qo'lyozma nusxalari:

1. O'zbekiston Respublikasi, Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida 549 varaqli fors tilida yozilgan nusxasi mavjud bo'lib, qo'lyozma asarning oxiri tushgan, o'zi 1072/1662 yili ko'chirilgan.

2. Yana oxiri tushib kalgan boshqa bir nusxa ham bo'lib, bu ham fors tilida, hajmi 217 varaq.

Muallif keltirishicha, Hofiz Ko'hakiyni davolagan Ubaydulloh Kahholning yirik asarlaridan biri arab tilida yozilgan tibbiyotga oid asari «al-Umdat al-kuhliya fi-l-amrod al-basariya» («Ko'z kasalligiga oid asosiy kitob»)dir. Kahhol she'riyatdan ham xabardor bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, shayboniylar davrida ham tibbiyot rivojiga katta ahamiyat berilgan. Shu davrda mashhur tabiblar, jumladan, Muhammad Mazid, mavlono Baqo, Shohali ibn Sulaymon, Sultonali Samarqandiy va Ubaydulloh Kahhol kabilar faoliyat olib borgan. Shifoxonalarda ishlovchi tabiblarga yuqori maosh to'langan, hukmdorlarning maxsus farmoni bilan ularning maoshi olimlar, munajjimlar, tarixnavis va muhandislarning maoshiga tenglashtirilgan.

#### ADABIYOTLAR:

1. Qodirov A.A. Tibbiyot tarixi. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2005. 176 b.

2. Абдуллаев А.А. Очерки истории развития медицины в Хорезме. Ташкент: Медицина. 1980. 162 с.

3. Кадыров А.А. Возникновение медицины в Средней Азии. Ташкент: Медицина. 1990. 41 с.

4. Махмудова Н.М. Очерки истории развития внутренней медицины в Узбекистане. Ташкент: Медицина, 1969, 242 с.

5. Тилляев Б.А. Роль естественных наук в Средней Азии XVI–XIX веков// Молодой ученый. - 2015. - № 9 (89). - С. 954-957.

4. Ermatova, G. A., Teshaboev, U., & Mamatmusayeva, G. T. F. S. (2022). MOTORIC FUNCTION OF THE BILIARY SYSTEM AT CHILDREN CONVALESCENTIA VIRAL HEPATITIS" A" AND" B. AND THEIR CORRECTION (Doctoral dissertaton).

6. Норматова, Ш. А., Ашурова, М. Д., Эрматова, Г. А., Хожиматов, Х. О., Султонов, Г. Н., & Болтабоев, У. А. (2014). Актуальные проблемы экологии и здоровья населения в Узбекистане. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (5-2), 208-211.
7. Normatova, S. A., Ashurova, M. D., Ermatova, G. A., Khozhimatov, K. O., Sultonov, G. N., & Boltaboev, U. A. (2014). Current problems of ecology and public health in Uzbekistan. Current Problems of Humanities and Natural Sciences, (5-2), 208-211.
9. Бахритдинов, Ш. С., Ахмадалиев, Р. У., Норматова, Ш. А., Эрматова, Г. А., & Ашурова, М. Д. (2010). Актуальные проблемы гигиены окружающей и производственной среды в условиях Ферганской долины Узбекистана. сборник научных трудов «Фундаментальные науки и практика, 1(3), 6-7.
10. Эрматова, Г. А. (2014). Фактическое питание и его влияние на здоровье женщин фертильного возраста. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (4-2), 225-227.
11. Ermatova, G. A., Teshaboev, U., & Mamatmusayeva, G. T. F. S. (2022). MOTORIC FUNCTION OF THE BILIARY SYSTEM AT CHILDREN CONVALESCENTIA VIRAL HEPATITIS" A" AND" B" AND THEIR CORRECTION (Doctoral dissertation).
12. Odinakhan Rakhmanovna Parpieva, Odinakhan Odilovna Djalalidinova //Reproductive Health Issues// Texas Journal of Medical Science. 10-11-2022. 58-61 pages.
13. OR Parpiyeva, AD Ostanaqulov //Health theory// Международный научно-практический журнал “Форум молодых ученых”. Вып №6 (34) 2019. 26-29 pages.
14. Odinakhan Rakhmanovna Parpieva, & Davlatov Hamidjon Dilshodjon ogli. (2023). HEALTH IS THE HIGHEST VALUE. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 760-763.
15. O.R.Parpiyeva, O.O.Dzhaloldinova //The role of Valeology in raising a healthy generation// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 04-10-2022. 1-3 pages.